



ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ

ВЕСТНИК НУУЗ АСТА NUUz

**МИРЗО УЛУГБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ**

**ЖУРНАЛ
1997
ЙИЛДАН
ЧИҚА
БОШЛАГАН**

**2022
1/3**

**Ижтимоий-
гуманитар
фаллар
туркуми**

Бош муҳаррир:

И.У.МАЖИДОВ – т.ф.д., профессор.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Р.Х.ШИРИНОВА – ф.ф.д., профессор

Таҳрир ҳайъати:

Сагдулаев А.С. – т.ф.д., проф.

Аширов А.А. – т.ф.д., проф.

Баллиева Р. – т.ф.д., проф.

Маликов А.М. – т.ф.д., проф.

Юсупова Д.Ю. – т.ф.д., проф.

Муртазаева Р.Х. – т.ф.д., проф.

Мўминов А.Г. – с.ф.д., проф.

Нишонова О.Ж. – ф.ф.д., проф.

Абдуллаева Н.Б. – ф.ф.д., проф.

Мадаева Ш.О. – ф.ф.д., проф.

Туйчиев Б.Т. – ф.ф.д., проф.

Эргашев И. – ф.ф.д., проф.

Ахмедов Х.А. – с.ф.д.

Мухаммедова Д.Г. – псих.ф.д.

Болтабоев Ҳ. – фил.ф.д., проф.

Рахмонов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Жабборов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Сиддиқова И.А. – фил.ф.д., проф.

Садуллаева Н.А. – фил.ф.д., доц.

Арустамян Я.Ю. – фил.ф.д., доц.

Пардаев З.А. – фил.ф.д., PhD.

Масъул котиб: **З. МАЖИД**

ТОШКЕНТ – 2022

МУНДАРИЖА

Тарих

Атамуратова Д. 1941-1945 йиллар Хоразм матбуотида сиёсий ҳамда ҳарбий-сиёсий масалалар: аҳамияти ва таҳлили	4
Габриелян С. Соперничество шахиншахского и учетно-ссудного банков в Персии в 1912-1914 годы.....	8
Исматова Н. Мустақилликнинг дастлаб йилларида Ўзбекистонда халқ таълими тизимидағи ислоҳотларнинг ҳукуқий асослари.....	12
Мамажонова И. Мустақиллик йиллари нотариат соҳасини тубдан ислоҳ қилиниши ва жамиятда нотариат соҳасининг тутган ўрни	16
Мухамедов Я. Чоч, Фарбий турк хоқонлигининг маъмурий маркази сифатида.....	20
Radjabova N. V.V.Krestovskiy va D.N.Logofetlarning kitoblarida Buxorodagi musiqa va raqs san'ati haqida ma'lumotlar	24
Сангирова Д. Ўлчов бирликлари тарихи: анъанавий метрология	27
Сиддиқов Р. Ўзбекистон олий таълим тизимида халқаро ҳамкорликни йўлга қўйилиши ва ривожланиши ..	31
Тошбоев Ф. Қадимги Уструшона ахолисининг марҳумни “поклаш” билан боғлиқ дафн маросимлари	35
Усмонов Ф. XX аср 20-30 йилларида Тошкентда болалар қаровсизлиги масаласи (архив материаллари асосида)	39
Худойкулов У. XX аср 50-80-йиллари Ўзбекистонда қишлоп ҳўжалигини ривожлантиришда трактор мутахассис кадрларни тайёрлаш	43
Ҳайдаров F. Хорижий инвестицияларни жалб этишдаги муаммолар ва ечимлар (Фарғона водийси вилоятлари мисолида, 1991-2010 йиллар).....	47
Ҳамраев С. Бухоро амирлиги ва Россия империяси ўртасидаги элчилик алоқаларини ўрганишда маҳаллий манбаларнинг ўрни.....	51
Шодиева Ш. Бухорода герман-турк жосуслик фаолияти	55

Фалсафа, Педагогика, Психология, Методика, Социология, Сиёсий фанлар

Агзамходжаева Ш. Исторические источники о философском мировоззрении Навои	58
Адыгезалов А. Узбекско-Азербайджанское взаимодействие в рамках организации тюркских государств ...	61
Aydarov E. Ekologik madaniyat, ta'lim-tarbiya berishning nazariy-uslubiy asoslari haqida ayrim mulohazalar.....	65
Алланазарова И., Абдрашитова И. Анализ перспектив, проблем и путей их решения в методике преподавания биологии в школе	69
Асиљбеков Н. Талаба шахсини қасбга ўргатишнинг илмий-назарий асослари	72
Асқарова З. Ўзбекистон тасвирий санъатида ижодкор аёллар	75
Axmadjonov O. Elektron madaniyatda shaxs va sun'iy ongni tutgan o'rni borasidagi fikrlar	79
Ахмедов Ж. Ўзбекистонда миллий кулолчилик анъаналари (Риштон кулолчилик мактаби мисолида).....	83
Axmedova M., Xusenova N. Ona tili o'qitish metodikasi ta'limi asosida talabalarni nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda mustaqil ish, sinov-test topshiriqlaridan foydalanish	86
Ганчёронок И., Жабборов Н., Седнина М. Преподавание на английском языке в высшей школе как эффективный механизм интеллектуальной мобильности	91
Guliyeva E. Theoretical fundamentals on productive speech peculiarities	95
Qudratov S. Innovative approaches and advanced in the development of professional competence of teachers	99
Маджидова Р., Мухитдинова Х. Роль лингвострановедческих мультимедийных средств в преподавании узбекского языка как иностранного.....	102
Мамадалиев Б. Электрон таълим мухитида “Электр юритма асослари” фанини ўқитиш мазмуни ва муаммолари	105
Мирзахмедов А., Парпиев И. Талаба – ёшларнинг компьютер тобелиги профилактикасига доир мулоҳазалар.....	108
Мўминов X. Масофавий таълим орқали имконияти чекланган талабаларнинг амалий машғулотларини ўтказиш жараёнининг шарт-шароитлари	111
Nasriddinov D. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida robotlashgan laboratoriya qurilmalarining o'ziga xosligi va ulardan foydalanish	114
Nafasov M. Onlayn ta'lim va unda mobil ilovalarning roli	117
Nematov L. Texnika oliy ta'lim muassasalarida “elektrotexnika va elektronika” fanini o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish	121
Отақулов Ш. Гендер тенглилка амал қилиш сиёсатининг асосий тенденциялари.....	124
Pardaboyev O'. Kredit-modul tizimini talim jarayoniga qo'llashning o'ziga xosligi.....	128
Ражабов X. Глобал ахборотлашув ва ахборот сиёсатига янгича қарашлар талқини.....	131
Raxmanova M., Meyliyeva M. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini tarbiyalashning ilmiy pedagogik asoslari	135
Raxmanqulov F. Talabalarda web-dizayn kompetentlikni rivojlantirishning metodik ta'minoti	139
Сагатова Ш. Психологияда болалар церебрал фалажи муаммосининг ўрганилиши таҳлили	143
Сапарова Г. Миллий ўзликни англашнинг методологик воситалари	146
Собирова Ш. Талабаларнинг мустақил таълим жараёни мобайнида интернет технологияларидан фойдаланиш қобилияtlарини ривожлантириш педагогик муаммо сифатида	149

Tangirberdiyev Sh., Mamadaliyev S. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda pedagogik shart-sharoitlarning ahamiyati	152
Tuxtashev U. Raqamli iqtisodiyot sharoitida talabalarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda xorijiy davlatlar tajribasi	155
Umarova G. Maktabgacha yoshdag'i bolalarning estetik madaniyatini shakllantirish.....	158
Urdushev A. Ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning raqobatbardoshligini shakllantirish modeli	162
Утемуратова З. Пространство дидактики и способа преподавания русского языка для студентов	166
Xomidjonov J. "Rentgen nurlarining tibbiyotdag'i ahamiyati" mavzusini kredit modul tizimida o'qitish	169
Хошимхонов М. Халқ таълими ва олий таълимда Машраб шеърларини ўрганиш услублари.....	172
Хусанов Э. Қадимги Ўрта Осиёда тарбиявий масалалар доирасида экологик маданият муаммоси	175
Hayitov U. Ta'lanning innovatsion texnologiyalarga qo'yadigan talab va tamoyillari.....	179
Eshboyeva D. Ta'lanning innovatsion texnologiyalarga qo'yadigan talab va tamoyillari	183

Филология

Абдуллаева М. Бобурнома" ва "Шажарайи турк"даги муштаракликлар	187
Ахмаджонова О. Адабиётшуносликда психофизиологик ҳолат ва унинг талқини	191
Faafforov H. Aйрим спорт терминларининг структур-семантик таснифи	194
Дадажонов О. Немис маърифатпарварлик драмасида қаҳрамон характери талқини	197
Деконова М. Ўзбек адабий танқидчилиги тараққиётига бир назар	200
Ибрагимов Ш. Телевидениеда шарх ва шархловчи.....	202
Икромалиева С. Узбекские народные пословицы служат обогащению человеческого мышления	205
Исматов С. Межкультурно-коммуникативные функции художественного перевода.....	208
Komolova Sh. O'zbek va nemis tillarida paremiologiyaning o'rganilishi	212
Kuchkarov T., Tuylanov B. "Shiroq" rivoyati va uning tarixiy-genetik asoslari.....	215
Qahharova S. "Yurmoq" fe'lining semantik tahlili	219
Қосимов А. Фарбий Европа романтизм адабиётида мифологизмлардан фойдаланиш хусусида	223
Курбонова Г. Нурали Қобул ижодида ҳайвонот олами ва инсон муносабатининг бадиий талқини	226
Мавлянов С. Дипломатик фаолият, дипломатия тили ва унинг терминологик таркиби (дипломатик услуг расмий услубнинг қуий услуби сифатида).....	230
Mansurova N. Ingliz tilida boshqaruv terminologiyasiga oid terminlarning asosiy morfologik va morfologik-sintaktik so'z yasash usullari	234
Махмудова Ф. Сайд Аҳмад ҳажвияларида ёрдамчи сўз туркумларининг нутқий воқеланиши	237
Мустафокулова М. Инглиз тилидан ўзбек тилига таржимада "sly" яни "айёр, маккор" сифатининг коннотатив маъносидаги ижобий, нейтрал ва салбий маъноларда ифодаланиши	241
Намазова М. Амир Худойберди ижоди босқичлари.....	244
Низамова М. Развитие проблематики раннего творчества У.Голдинга в романах 1970-80-х годов.....	248
Рахимова М. Эссе матнида синонимларинг услубий кўлланиш имкониятлари	251
Safarova D. Transatlantic Vector in the works of Ernest Hemingway	254
Sultanova Sh. Tilshunoslikda lingvistik terminlarning qiyosiy tahlili	258
Суюнов Б. Тилларро ташки тиббий лакунар бирликлар.....	260
Тилловова Г. Немис ва ўзбек тилларида дендронимларнинг этимологик таснифи	263
Тўраева Б. Жаҳон ва ўзбек адабиётшунослигига хронотоп категориясининг ўрганилиши	266
Umarova N., Mahmudova O. Tilshunoslikda leksik ma'no va tushunchaning umumiy va xususiy xarakterlanishi	269
Хўжамуродова О. Антропонимлар таркибида гул лексемаси ва унинг лисоний ва нолисоний омиллари ва хусусиятлари	272
Хожиева Г. Француз ва ўзбек тилларидаги санъат терминларининг лингвомаданий хусусиятлари таҳлили	275
Хошимхонов М. Ўзбек шоири машраб ижодининг хорижда ўрганилишига доир қайдлар.....	278
Sharipova M. "Qo'y" LMGi asosida shakllangan o'zbek xalq maqollarida metaforizatsiyalashuv	281
Sherqulov S. Uilyam Folknerning "Shovqin va g'azab" romanida fojeaviylik.....	284
Eshboyev Q. Akademik lug'atlarda ma'noviy darajalanish talqini	287
Юлдошева Н. Содда гап қолиллари воқеланишига таъсир қилувчи акцентуатив омиллар	290



Erkin AYDAROV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: erkin_aydarov@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, dosent Botirova Sh.I, taqrizi asosida

EKOLOGIK MADANIYAT, TA'LIM-TARBIYA BERISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotation

Ushbu maqlolada maktabgacha ta'lim muassasalari va o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim dasturlarida ekologiya to'g'risidagi fikr mulohazalar, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasiga oid qimmatli ma'lumotlar, uslubiy o'quv materiallar orqali o'quvchi va talabalarga ta'lim- tarbiya berishning uslublari haqida so'z yuritilingan.

Kalit so'zlar: Ekologik pedagogika, atrof muhit muxofazasi, ekologik ta'lim va tarbiya, huquqiy bilimlar, globallashuv sharoitida atrof muxit muxofazasi.

SOME COMMENTS ON THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FUNDAMENTALS OF ECOLOGICAL CULTURE AND EDUCATION

Annotation

This article presents valuable information on ecology in preschool and general education curricula, valuable information on ecology and environmental protection, nature conservation, rational use of natural resources, education of students through methodological materials, presentation methods.

Key words: Environmental pedagogy, environmental protection, environmental education and upbringing, legal knowledge, environmental protection in the context of globalization.

НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ О ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВАХ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ВОСПИТАНИЯ

Аннотация

В данной статье представлены ценные сведения по экологии в дошкольных и общеобразовательных учебных программах, ценные сведения по экологии и охране окружающей среды, охране природы, рациональному использованию природных ресурсов, воспитанию учащихся через методические материалы, методы подачи.

Ключевые слова: Экологическая педагогика, охрана окружающей среды, экологическое образование и воспитание, правовые знания, охрана окружающей среды в условиях глобализации.

XX asrning ikkinchi yarmida inson ongi va tafakkurining mahsuli texnik yangiliklarning rivoji, industorial jamiyatga o'tish taraqqiyot mezonini belgilab berish bilan bir vaqtida insoniyat oldida juda ko'p va murakkab muammolar yuzaga keldiki, ular ta'sir doirasining miqyosi va ahamiyatiga ko'ra global muammolar nomini oldi.

Buning natijasi mahalliy, mintaqaviy, umumbashariy harakterga ega bo'lgan turli xil ekologik muammolar yuzaga kelib, insoniyat sivilizasiyasi davomiyligiga tahdidi ortib bormoqda. Ayni vaqtida dunyo aholisining aksariyati ekotizimni buzilishi va atrof-muhitni ifloslanishi kabi ekologik muammolar insoniyat uchun katta xavf ekanligini ta'kidlamoqdalar.

Insoniyat hayotini tahlikaga solayotgan ekologik masalaga yondashuvni bugungi kunda kelajak istiqboli nuqtai nazaridan yoshlardan ta'limgardiyining ajralmas va asosiy omili sifatida tashkil etish davr talabi bo'lib qolmoqda. O'quvchilarga ekologik tarbiyani singdirishning ilmiy-nazariyi jihatlarini tadqiq etgan holda amaliy – tarixiy bilimlar tizimi bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlash zarur. Bu yondashuv pedagogikada ekologik madaniyatni shakkantirishning zamini bo'lib xizmat qilgan holda, ekologik ta'lim konsepsiyasiga muvofiq tabiat bilan o'zaro munosabatlarni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirishga imkon bergan holda "Ekologik tarbiya" omilining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

"Ekologik tarbiya" atamasi pedagogikada nisbatan yangi tushuncha, biroq inson va atrof-muhit, tabiatning o'zaro ta'siri muammosi pedagogik yondashuv tarixi davomida turli nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan. Ekologik ta'limning hayotga tatbiq etilishi pedagogik tarixiy ta'limot yondashuvlarda alohida ahamiyatga ega bo'lib, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini inson shaxsining shakllanishi, yaxlitligi, inson va tabiat, jamiyat va koinot birligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan.

Y.A.A.Komenskiy nuqtai nazaricha insonda tabiiy, mustaqil va o'z-o'zini harakatga keltiruvchi kuch mavjud degan qarash ilgari surilgan holda, ta'llimning muntazamligi asosida o'quvchi dunyoni anglash va zaruriy bilimlarni egallashda o'zini o'zi faoliyatga undovchi tamoyil nazariyasini shakllantiradi, degan fikrlarni ilgari surgan [5].

Tabiat va unga bo'lgan munosabat bolaning yoshligidan paydo bo'lishi haqidagi qarash va nazariyalar J.J.Russo ijodida ham alohida ahamiyat kasb etgan bo'lib, uning nuqtai nazaricha bolaning "tabiiy rivojlanishi" tarbiyaning uchta kombinasiyasiga, ya'ni tabiat, odamlar va jamiyatning uzviy bir-biriga ta'sir va doimiy aloqasiga bog'liqligiga asoslanishini ta'kidlaydi. Shuningdek, ta'lim jarayonida J.J.Russoning fikriga ko'ra bola tabiat qoidalariga rioya qilishi zarur. Tabiiy ta'lim jarayonida bolaning moyilligi va ehtiyojlarini hisobga olnishi, ijtimoiy majburiyatlarga

yo'naltirish zarur bo'lgan hayotiy bilimlar bilan uyg'unlashish g'oyasini ilgari suradi. O'quvchilarni yoshiga qarab jismomonan va ruhan davolang, uni har kuni tabiat bag'riga olib chiqing, u o'sha erda yugursin va bir necha marta yiqilsin, bu jarayon uni tezroq turib ketishga, ya'ni hayotiy pozitsiyasini o'zi belgilash va tiklash imkoniyatini beradi [11].

I.G.Pestalotssi insonni mukammal mavjudot, deb hisoblagan va tarbiyalashda tabiatga moslik g'oyasini ilgari surgan holda ta'limgarayonini inson tabiatini xususiyatlariiga, uning rivojlanish qonuniyatlariga muvofiq ravishda tashkil etish lozimligini ta'kidlagan. Shuningdek, u insonning barcha kuchlari va qobiliyatlarini uyg'un rivojlanishi ta'limgarning asosiy maqsadidir, degan qarashni ilgari suradi [32].

Yuqorida yondashuvlardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki tarbiyaning tabiat-muvofiqligi talqinida tashkil etib insonning tabiiy rivojlanishi jarayonida, bolaning yoshi va individual xususiyatlari hisobga olish muhim masalalardan hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilarining diqqati, xotirasi, individual tipologik xususiyati va fikrlash jarayonining o'ziga xosligini har taraflama o'rganish, tabiiy va ijtimoiy - atrof-muhit birligi, yaxlitligi prinsipiga muvofiq holda zamonaviy madaniyat va ma'naviy qadriyatlarga tayanib ta'limgarayonini tashkil etish bugungi kunning dolzarb malalasidir.

Ushbu masala yuzasidan tadqiqot olib borgan rus olimi K.D.Ushinskiy ta'limgarayonida bolaning har tomonlama rivojlanishi va shakllanishi, xarakter xususiyatlariining barcha murakkab jihatlari, tabiiy va ijtimoiy muhit bilan munosabatlarining barcha jabhalarini o'rganish va ochib berish asosida yaxlit ilmiy tizimni taklif etgan. Uning nuqtai nazaricha har bir millatning tarixiy rivojlanishi, geografik va tabiiy sharoiti tufayli o'ziga xosligi shakllanishi asosida tabiatni his qilish, zavqlanish, yaratish baxtini anglash orqali atrofdagilar va kelajak manfaati yo'lidi faoliyat yuzaga keladi [9].

Tarbiya muammolarini faqatgina ta'limgarayonida doirasida ko'rib chiqish bir tomonlama qarash bo'lib, bu borada to'g'ri qaror qabul qilishda etarlicha asosga ega bo'lmaydi. Shuning uchun bola shaxsini shakllantirishda atrof-muhit - tabiat, oila, ijtimoiy institutlar, davlat va nodavlat tashkilotlar, davlat siyosati va iqtisodiyoti ham o'z o'rninga ega bo'lib, ma'lum funksiya va vazifalarini bajargan holda ta'sir doirasi darajasida ekologik ta'limgarayonida muammolar bilan bevosita bog'liq bo'lgan maktab va atrof-muhitning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirishda tizimlilik muvozanatini ta'minlashda katta xizmat qiladi. Bunda:

- maktab ta'limi o'z faoliyatida atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan o'qitish tizimini amalga oshiradi;
- o'quvchilarida atrof-muhitga qiziqish va jonli tabiatga mehr ko'rsatish hamda uning bir bo'lagi ekanligini singdirish borasidagi targ'ibot va tashviqotni samaradorligini oshirish borasida zamonaviy dasturlar yaratadi;
- maktabda o'quvchilarga nafaqat atrof-muhitni o'rganish balki uning faol iste'molchisi ekanligini singdirish orqali, kelajakda yashab qolishning birdan-bir manbai ekanligini uqtiradi;

-maktab ta'limgarayonida jamiyat muvozanati hamda sog'lom fikr yuritish tabiat va ekotizim mahsuli ekanligini nazariy manbalar va amaliy omillar orqali tushuntiradi;

-o'quvchi yoshlarda atrof-muhit va ekotizim yuzasidan ilg'or fikrlarni, zamonaviy qarash va nazariyalarni singdirgan holda ijtimoiy faolligini oshirib konservativ qarashlardan holi etadi.

Ushbu qarashlarimiz "ekologik pedagogika" muammolarini faol rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatib, yoshlarda ekologik ta'limgarayonini yangicha qarashlarini shakllanishiga nazariy va amaliy omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

"Ekologik pedagogika" ta'limi tahlili shuni ko'rsatadi, maktab o'quvchilariga zamonaviy ekologik ta'limgarayonini rivojlanishiga uchun muhim bo'lgan bir qator asosiy yondashuvlarni aniqlash imkonini yaratib, fan dasturiga, xususan, atrof-muhitning mohiyatini va uning pedagogik ahamiyatini, ta'limgarayonini tizimidagi o'rnini asoslash, atrof-muhitning har xil turlarini o'rganish, atrof-muhit bilan pedagogik ishlarni tashkil etishning uslubiy masalalarini ishlab chiqish, "ko'rsatkichlar" va "o'chov birliklari" kabi masalalar joy olishini taqozo etadi. Shundan kelib chiqqan holda, "atrof-muhit pedagogikasi" konsepsiyaning tarafdarlari insonning shakllanishiga ta'sir qiluvchi tabiiy omillarni, qonuniyatlarini, tashkil etish shakllarini va usullarini, insonni ijtimoiy shakllanishining butun jarayonini doimiy integral sifatida o'rganish zarurligini ta'kidlaganlar.

Bu maktablar "Jamiyat maktabi" ning an'anaviy ta'limgarayonida farqli o'laroq, "norasmiy", "ochiq" ta'limgarayonini asosida tashkil etilganligi bilan ajralib turardi. An'anaviy sinflar o'rninga - o'yin maydonchalari, zallar, jamoaviy va individual darslar uchun turli burchaklar, moslashuvchan jadval, rejalar va dasturlarning tizimliligi negizida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati uyg'unlikda tashkil etilgan.

Ushbu masalani g'arb mamlakatlari xususan Germaniya misolida olib qaraydigan bo'lsak o'qituvchilar tomonidan o'tkazilgan eksperiment natijalari shuni ko'rsatadi "shahar maktab sifatida" modeli misolida amalga oshirilgan loyihada maktab o'quvchilar o'rtasidagi uyushgan hamkorlik samaradorligining o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchilar va ularning o'qituvchilarini ko'p vaqtlarini maktabdan tashqari - muzeylearda, shahar sanoat muassasalarida, jamoat tashkilotlarida va shahar xizmatlarida faoliyatini tashkil etadi. Bu jarayon amaliyotda ekologik tarbiya va ta'limgarayonida muvaffaqiyatli natijalarga erishishni ta'minlab, ijtimoiy faoliyotning oshishiga olib keladi. Ya'ni, o'quvchilarida aniq faoliyatni amalga oshirish, "jiddiy vaziyatlarda", kasbiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarda oqilona xattiharakatlarni tashkil etish, shuningdek, ijtimoiy-madaniy muammolarning ahamiyati hamda rivojlanish dinamikasini yaxshiroq tushunishga olib kelgan [1].

Fransuz pedagogikasi sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda "atrof-muhit" tizimini ta'limgarayonida tashkil etishda tarkibiy tuzilmalaridan ekanligiga alohida e'tibor qaratishgan. O'quvchilarining atrofi-muhit haqidagi tushuncha va qarashlarini ma'lum bilimlar bilan cheklab qo'ymaslik uchun, pedagogik amaliyot nafaqat mahalliy muhitga, balki butun jahon ekotizimi yuzasida ma'lumotlar bilan to'yintirilib borishi muhimpligi haqidagi qarashlar ilgari surilgan. Ushbu nazariy qarashlarda maktabni atrofdagi dunyo bilan bog'liq holda bolada ma'lum bir dunyoqarashni shakllantirishning dinamik omili deb baholashgan. Ekologik muammolar maktab va maktabdan tashqari ta'limgarayonida faoliyatini kuchaytiradi, pedagogik va fuqarolik (pozitsiyasi) jihatlari uyg'un tarzda muvofiqlashib samarali natijalarni beradi degan g'oyani ilgari surishgan [10].

"Ekologik pedagogika" nazariyasini ishlab chiqish natijasida atrof-muhit va ekologik ta'limgarayonida tashkil etishda yangi istiqbollarni ko'rib chiqishga imkon berdi. Yuqorida ilmiy jihatdan tahlil etilgan ta'limgarayonida muhitining g'oyalarini birinchi navbatda ijtimoiy ta'limgarayonida muammolarini sifatida rivojlandi va pedagogikada ekotizimdan maqsadli foydalanish, avvalambor tabiaty muhit bilan yaqin aloqada "ochiq" pedagogik tizimni yaratishning o'ziga xos tajribasi yuzaga keldi. Bu qarash va nazariyalarni haqida tadqiqotchi V.A.Suxomlinskiy bir qator ilmiy nazariyalarni ilgari surgan bo'lib, tabiat bilan aloqa qilish orqali insonni tarbiyalash u yaratgan butun pedagogik tizimni qamrab oladi deydi [8].

AQSHlik tadqiqotchi Betti Riordan ushbu masalada fikr yuritib: "...pedagogikadagi ekologik yondashuv dunyoda mavjud bo'lgan o'zaro bog'liqliklarning tizimli ko'rinishini

nazarda tutadi hamda hurmatga asoslangan qarash va harakatlar tizimiga asoslangan dunyo va tabiat tushunchasi "muqaddas" va "butun" so'zlari bilan izohlanadi"[7], deya ta'kidlaydi.

Ekologik masala yuzasidan 2019 yil 12 aprel kuni Xalqaro ekologik bilimlar kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Ekoharakat deputatlik guruhi hamda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi hamkorligida "Mamlakatimizda ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish" masalasi atroficha muhokama qilinib, dunyoda kun sayin keskinlashib borayotgan ekologik muammolarni bartaraf etish uchun ekologik bilim yuqori bo'lmog'i lozimligi ta'kidlangan. Unda har yili dunyoning ko'plab mamlakatlarida ekologik bilimlar kuni keng ommaviy ravishda nishonlanishi e'tirof etilgan holda 1992 yil Rio-de-Janeyro shahrida o'tkazilgan BMT konferensiyasida atrof-muhit muammolari muhokamasi chog'ida insoniyatning hayoti va barqarorligi uchun butun dunyo aholisi o'rtasida ekologik bilimni targ'ib etish atroficha bayon etilganligi xususida ilmiy - amaliy fikr-mulohazalar yuzasidagi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Bundan ko'zlangan maqsad – sayyoramiz aholisining ekologik bilimini boyitish g'oyasini ilgari surish, aholida ekologik madaniyatni rivojlantirish, jamiyatning ekologik xavfsizligi haqida jamoatchilikning xabardorligini oshirish hamda har bir fuqaroni tabiatga hurmat-ehtirom ruhida tarbiyalashni targ'ib etishdir.

Bu borada mamlakatimizda keng qamrovli ijtimoiy – siyosiy masalalar amalga oshirilayotgan bo'lib, tabiat, ekotizim, atrof-muhit barqarorligini ta'minlash, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish kabi jiddiy va hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamenti, ayniqsa, yoshlarni keng jalb etish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish borasida zaruriy ishlar amalgalashmoqda. Ta'kidlash lozimki, ekologik ta'limni amalgalashmoqda. Ma'lum kamchiliklar saqlanib qolayotgan bo'lib, xususan, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida nazarda tutilgan barcha turdag'i lim muassasalarida ekologik ta'limning majburiyligiga oid talablar etarli darajada bajarmayotganligidir. Bugungi kunda ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganini inobatga oladigan bo'lsak, mamlakatimizda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda, atrof-muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berish lozimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 12 iyul kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik

harakati vakillari bilan videoselektor yig'ilishidagi ma'rurasida ham bu masalalarga to'xtalib, "...Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin" – deb alohida ta'kidlagan. Davlat rahbari tabiatni e'zozlash va uni qadrlash bizga ajodolarimizdan meros bo'lib, milliy qadriyatlarimizning qon tomiriga singib ketgan, asrlar osha ma'naviyatimizning bir bo'lagi sifatida shakllanganini, xalqimizdagi tabiatga bo'lgan ehtirom beqiyos ekanini yosh avlod qalbiga singdirish lozimligini ilmiy – amaliy ishlar natijasi va samaradorligi asosida amalga oshirish lozimligini uqtirmoqda.

Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda ekologik ta'lim konsepsiysi ishlab chiqilganligi va mazkur hujjatning qabul qilinishi aholining ekologik xavfsizligini ta'minlashga doir muhim ijtimoiy – madaniy va huquqiy negizini yaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ta'lim muassasalarida ekologik targ'ibot tizimini yo'lga qo'yish, uni rag'batlantirish, ekologik ta'lim-tarbiyaga oid elektron-metodik vositalar va innovatsiyalardan foydalaniш imkoniyatini kengaytirish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqilishi zamон talabidir.

Shu nuqtai nazardan ta'lim va tarbiya modelini yaratish hamda o'quvchilarda ekologik madaniyatning namoyon bo'lishi uchun:

O'qituvchilarda ekologik muammolarning ahamiyati va ekologik ta'limning ustuvorligi muhitini yaratish, maktab ta'limida ekologik ta'limning pedagogik jarayonini ta'minlaydigan sharoitlarni yuzaga chiqarish, pedagoglar tarkibini muntazam ravishda tajribali va yuqori saviyali o'qituvchilar bilan to'ldirish, zamonaviy ekologik ta'lim uslubini o'zlashtirish, ota-onalar o'rtasida ekologik targ'ibotni nastardan tizimini yaratish, o'quvchilarda ekomadaniyatni shakllantirishning zamonaviy texnologiya doirasida tizimli tashkil etish va takomillashtirish kabi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish lozim.

Bunda eng avvalo o'quvchilarning ekologik bilimlari mazmunini ilmiy asoslarini yaratishda quyosh, atmosfera, litosfera, gidrosfera, yilning turli vaqtlarida tabiatdagi o'zgarishlar, hayvonlarning xilma-xilligi, o'sishi va rivojlanishi, oziqlanishi, organizmga, atrof-muhitga ta'siri, turli xil ekotizimdagи hayvonlar, ob-havo hamda tabiat hodisalarini o'quvchilar ongi va tafakkuriga, ichki ruhiy olamiga ya'ni psixologiyasiga ta'sirini aks etishini har taraflama o'rganish maqsadiga.

ADABIYOTLAR

- "Город как школа". Проект "Интернациональная сеть производственных школ в Европе". Модель "Воспитывающий город": Социальная педагогика за рубежом. Теория и практика. - М.: Все с Межрегиональная ассоциация социальных педагогов и работников. Центр соц. педагогики исоц. работы, 1991.- С.58.
- Айдаров Е.Б. Ўқувчи ёшларга табиий-худудларни муҳофаза килиш орқали экологик тарбия бериш. Монография.- Т.: "Илим-зинё-заковат" нашриёти, 2019, 120 б.
- Айдаров Е.Б. Ўқувчи-ёшларга маънавий-ахлоқий тарбия бериш орқали экологик маданиятни шакиллантириш // Замонавий таълим, №8 (81). – Т., 2019. - Б. 60-66. (13.00.00; №10).
- Айдаров Е.Б. Худойкулов Ж.Ж. Важность экологического образования и воспитания школьников. Педагогическое образование и наука // Научно-методический журнал // ISSN 2072-2524. № 6 (Россия) Москва. 2021. - Стр 128-132.
- Великая дидактика / Я. А. Коменский – М.: Книга по Требованию, - 2012. С.247-248.
- Избранные педагогические сочинения в 2-х томах / Песталоцци И.Г. - М.: Педагогика,2012. –С. 127.
- Риордан Б. Познавая наш путь в будущее // Приоритеты современной педагогики: Мир - Экология - Сотрудничество: Материалы международного педагогического проекта PEACE (Международное движение "Педагоги за мир и взаимопонимание"). Центр педагогики мира / Под ред. Э.С.Соколовой, сост. В.С.Митина. - М., 1993.- С.14
- Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. - Киев: "Радянська школа", (1974. -С.27) http://pedlib.ru/Books/1/0214/1_0214-2.shtml#book_page_top.
- Ушинский К.Д. Избранные пед. Соч. В 2-х т.т.- М., 1974. -С. 98